O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

“IQTISODIYOT NAZARIYASI” KAFEDRASI

“YANGI O‘ZBEKISTON TARAQQIYOT STRATEGIYASI DOIRASIDA XIZMAT KO‘RSATISH SOHASI TARMOQLARINI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY MEXANIZMLARI”

XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN

MATERIALLARI TO‘PLAMI

2026-YIL 18-APREL

SAMARQAND

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

“IQTISODIYOT NAZARIYASI” KAFEDRASI

“YANGI O‘ZBEKISTON TARAQQIYOT STRATEGIYASI DOIRASIDA XIZMAT KO‘RSATISH SOHASI TARMOQLARINI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY MEXANIZMLARI”

Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

MATERIALLARI TO‘PLAMI

2026-yil 18-aprel

Samarqand-2026

UO'K: 338.46(575.1)
Y 61
KBK: 65.9(5O'zb)

Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi doirasida xizmat ko'rsatish sohasi tarmoqlarini rivojlantirishning iqtisodiy mexanizmlari// *Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. 2026-yil 18-Aprel. Samarqand, SamISI, 2026. –668 bet.*

To'plovchi va nashrga tayyorlovchi:
I.I.Ayubov – "Iqtisodiyot nazariyasi" kafedrasi mudiri, i.f.f.d., PhD, dotsent;
M.I.Ibragimova – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent v.b.;

Nashr uchun mas'ullar:
O.M.Pardayev – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;
M.M.Muxammedov – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;
L.N.Xalikova – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;
A.B.Shakarov – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent;
X.A.Ulashev – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent **;**
N.A.Kamilova – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent;
Yu.P.Urunbayeva – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent;
F. F.Salamov – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent v.b.;
F.A.Ishankulova - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent v.b.;
F.A.Ishonkulova - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent v.b.;
Sh.A.Quldoshev – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent v.b.;
A.A.Ablaizov -– iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, katta o'qituvchi;
O.M.Ro'zibayev-–iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent v.b.;
S.O'. Xusenov - "Iqtisodiyot nazariyasi" kafedrasi katta o'qituvchisi.

Sahifalovchilar:
M.Q.Nizomov – SamISI "Iqtisodiyot nazariyasi" kafedrasi assistent-stajyori;
T.I.Shukurov – SamISI "Iqtisodiyot nazariyasi" kafedrasi assistent-stajyori.

Ushbu xalqaro ilmiy-amaliy anjuman "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi doirasida xizmat ko'rsatish sohasi tarmoqlarini rivojlantirishning iqtisodiy mexanizmlari" mavzusiga bag'ishlanib, milliy iqtisodiyotda xizmatlar sektorining o'rni va ahamiyatini oshirish, uni zamonaviy talablar asosida transformatsiya qilish hamda barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashga qaratilgan ustuvor yo'nalishlarni kompleks tahlil etishni maqsad qiladi. Mazkur anjuman doirasida xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanishiga oid dolzarb ilmiy va amaliy masalalar keng qamrovda ko'rib chiqiladi. Xususan, anjumanda quyidagi ustuvor yo'nalishlar bo'yicha ilmiy muhokamalar olib borilishi rejalashtirilgan: Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi doirasida xizmat ko'rsatish sohasi tarmoqlarini rivojlantirishning nazariy va metodologik masalalari; xizmat ko'rsatish sohasi tarmoqlarini rivojlantirishning innovatsion va iqtisodiy mexanizmlari; hududlarda xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishning hududiy-iqtisodiy mexanizmlari; ijtimoiy xizmatlar sohasida barqaror rivojlanishni ta'minlashning iqtisodiy mexanizmlari; hamda tarmoqlararo integratsiya sharoitida xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishning iqtisodiy mexanizmlari.

Tezislar mualliflar tahririda bosilmoqda. Ularda keltirilgan raqamlar, faktlar, xulosa va tavsiyalarga mualliflar mas'ul. Ularning ayrim fikrlari tashkiliy guruh qarashlariga to'g'ri kelmasligi mumkin.

ISBN: 978-9910-225-63-5

© Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, 2026.

Keyingi muhim yo‘nalish – **kadrlar salohiyatini oshirish**. Servis, turizm va umumiy ovqatlanish sohalarida malakali mutaxassislarni tayyorlash va qayta tayyorlash tizimini takomillashtirish xizmatlar sifatini oshirishga olib keladi. Bundan tashqari, **raqamli platformalar va marketing vositalarini rivojlantirish** orqali gastronomik obyektlar haqida keng axborot tarqatish, onlayn bron qilish va xizmatlar monitoringini yo‘lga qo‘yish zarur. Shuningdek, kam rivojlangan hududlarda gastronomik turizmni rag‘batlantirish uchun **soliq imtiyozlari, subsidiyalar va davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini kengaytirish** muhim ahamiyatga ega.

Ushbu taklif va tavsiyalarni amaliyotga joriy etish gastronomik turizmning barqaror rivojlanishini ta’minlab, hududiy ijtimoiy xizmatlar tizimini iqtisodiy jihatdan mustahkamlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.UNWTO. (2019). *Global report on food tourism*. Madrid: UNWTO.

2.World Bank. (2020). *Tourism for development: Enhancing opportunities for local communities*. Washington, DC: World Bank Publications.

3.OECD. (2020). *Tourism trends and policies 2020*. Paris: OECD Publishing.

4.Hall, C. M., & Sharples, L. (2003). *Food tourism around the world: Development, management and markets*. Oxford: Butterworth-Heinemann.

5.Richards, G. (2015). Evolving gastronomic experiences: From food to foodies to foodscapes. *Journal of Gastronomy and Tourism*, 1(1), 5–17.

6.Bessière, J. (1998). Local development and heritage: Traditional food and cuisine as tourist attractions. *Sociologia Ruralis*, 38(1), 21–34.

7.Everett, S., & Aitchison, C. (2008). The role of food tourism in sustaining regional identity: A case study of Cornwall, South West England. *Journal of Sustainable Tourism*, 16(2), 150–167.

8.Hjalager, A. M. (2002). A typology of gastronomy tourism. *International Journal of Tourism Research*, 4(2), 21–35.

Юлдуз Пирназаровна Урунбаева - Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти и.ф.ф.док., доцент

Музей туризмини ривожлантиришнинг иқтисодий самарадорлиги (Самарқанд вилояти мисолида)

Аннотация:макола Самарқанддаги музейлаштирилган Регистон ансамбли мисолида музей туризмини ривожлантиришда иқтисодий самрадорликнинг ошиши таҳлил қилинган ва келгусидаги молиявий ўсишнинг аниқ кўрсаткичлари ишлаб чиқилиб, тавсиялар берилган.

Калит сўзлар: функсия, музейлаштириш, корреляция, регрессия, статистика, модел, коэффицент, диаграмма, траектория, тест, прогноз.

Самарқанд вилоятида туризм соҳасини ривожланишининг асосий ресурслари сифатида вилоятда жойлашган ва музейлаштирилган тарихий ёдгорликлардан фойдаланиш янада кўпроқ туристларни жалб қилиш

ҳисобланади.Бундан келиб чиқадики, Самарқанд вилоятида туризм соҳасини ривожланишига асосий таъсир этувчи омил бўлиб музейлаштирилган тарихий ёдгорликларни жозибадорлиги бўлса, тарихий ёдгорликларнинг жозибадорлигини таъминлаш ушбу тарихий обида тамонидан олинадиган молиявий натижалар ҳамда давлат томонидан қўллаб-қувватлаш механизмлари бўлиб ҳисобланади.

Ҳар қандай натижага функсионал омиллар ҳамда корреляцион омиллар сингари икки гуруҳ омиллар таъсир қилади.Функсионал омиллар бу омилнинг бир бирликга ўзгариши натижасида натижани қанча миқдорда ўзгарганлигини ҳисоблаш мумкин бўлган омиллар ҳисобланса, корреляцион боғлиқликдаги омилларни бир бирликга ўзгариши натижасида натижа қанча миқдорда ўзгаришини айтиш мумкин эмас.

Халқаро иқтисодиётда бугунги кунда корреляцион боғлиқликдаги омилларни кам статистик хатолик билан боғлиқлигини баҳолаш ҳамда ушбу омиллар асосида прогноз кўрсаткичларини ишлаб чиқиш муҳим ҳисобланади. Буни аниқлашда маълумотларни корреляцион-регрессион таҳлилдан ўтказиш лозим бўлади. Корреляцион-регрессион таҳлил статистик таҳлил усулларидан бири бўлиб, икки ёки ундан ортиқ ўзгарувчилар орасидаги боғлиқлик даражасини аниқлаш ва бу боғлиқлик асосида прогноз қилиш имкониятини беради.

Корреляцион-регрессион таҳлил қуйидаги кетма-кетликда амалга оширилади:*биринчидан*, муоммо аниқланади ва ечим бўйича мақсад қўйилади. Бу босқичда таҳлил қилинадиган ўзгарувчилар (мустақил ва боғлиқ ўзгарувчилар) аниқланади;*иккинчидан*, таҳлил қилинадиган ўзгарувчилар бўйича маълумотлар тўпланади. Бу босқичда танланган ўзгарувчиларга оид аниқ ва ишончли статистик маълумотлар йиғилади. Маълумотлар етарли миқдорда, бир даврга тегишли ва аниқ бўлиши керак;
учинчидан, маълумотлар дастлабки таҳлилдан ўтказилади. Бу босқичда жадвал тузиш, ўзгарувчилар қийматларини кўрсатиш, диаграмма чизиш, бу орқали боғлиқликни визуал баҳолаш амалга оширилади. Нормал тақсимотга мослик, экстремал қийматлар борлиги текширилади;*тўртинчидан*, корреляция таҳлили ўтказилади. Бу босқичда корреляция коэффеценти ҳамда корреляция даражаси баҳоланади;*бешинчидан*, регрессион таҳлил амалга оширилади. Бу босқичда боғлиқ ўзгарувчи, мустақил ўзгарувчи, эркин ҳад ҳамда регрессия коэффицентлари асосида регрессия функсияси ишлаб чиқилади;*олтинчидан*, регрессия моделининг статистик аҳамиятлилиги текширилади;*еттинчидан*, регрессия модели асосида прогноз кўрсаткичлари ишлаб чиқилади;*саккизинчидан*, олинган натижалар талқин қилинади ҳамда тегишли хулосалар ишлаб чиқилади.

Тадқиқот давомида юқоридаги келтирилган фикрлар асосида Самарқанд вилоятидаги асосий тарихий ёдгорликлардан бири, музейлаштирилган “Регистон” ансамбли танлаб олинди ҳамда биринчи босқич сифатида “Регистон” мажмуасини ривожлантириш ҳамда унга таъсир этувчи корреляцион боғлиқликдаги омилларни таъсирини аниқлаш мақсад қилиб олинди.Тадқиқотнинг иккинчи босқичи сифатида натижавий кўрсаткич қилиб “Регистон” ансамблининг асосий натижавий кўрсаткичи ансамблнинг тушуми

сифатида олиниб унга таъсир этувчи корреляцион боғлиқликдаги омиллар сифатида қуйидагилар танлаб олинди.

Й – ансамблнинг тушуми;

$X_1 - majmuadagi\ xodimlar\ soni;$

$X_2 - jami\ turistlar\ soni;$

$X_3 - mahalliy\ turistlar\ soni;$

$X_4 - xorijiy\ turistlar\ soni;$

$X_5 - dam\ olish\ maskanlari\ soni;$

$X_6 - turizm\ sohasiga\ kiritilgan\ innovatsiyalar\ so;$

Танлаб олинган натижавий кўрсаткич ҳамда натижага таъсир этувчи омиллар бўйича статистик кўрсаткичлар йиғилди (1-жадвал).

1-жадвал

“Регистон” ансамблининг 2015-2024-йиллардаги тушуми ҳамда унга таъсир этувчи омиллар динамикаси[103]

	Регистон ансамбли тушуми (сўмда)	**Регистон ходимлари сони (бирликда)**	**Жами туристлар сони (бирликда)**	**Маҳаллий туристлар сони (бирликда)**	**Хорижий туристлар сони (бирликда)**	**Дам олиш масканлари сони, дона**	**Туризм соҳасига олиб кирилган инновациялар сони, дона**
2015	865448142	45	200600	168600	32000	30	25
2016	1330611089	41	237000	202500	34500	42	30
2017	2549211595	40	706265	647865	58400	120	42
2018	5032351636	40	1209969	1115737	94232	163	54
2019	8772495000	42,5	1159767	1002774	156993	201	62
2020	1668735000	32	188488	178720	9768	256	65
2021	4616578794	43,5	680264	647835	32429	256	25
2022	9522482593	45,5	1027951	914461	113490	261	15
2023	15049262894	47,5	1025510	822117	203393	282	26
2024	25563463344	47,5	1160700	865490	295210	305	30

Тадқиқотнинг кейинги босқичи сифатида натижа ҳамда омиллар ўртасидаги боғлиқликни визуал баҳолаш мақсадида натижа ҳамда омилларни ҳаракат траекториялари ГРЕТЛ дастури ёрдамида бир диаграммада акс эттирилди (1-диаграмма).

[103]O‘zbekistonda turizm. O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. Statistik to‘plam.Toshkent-2024.



1-диаграмма.Натижа ва омиллар ўртасидаги боғликлик

Олинган натижалардан кўриш мумкинки, ҳаракат траекториялари бўйича бешинчи омилдан ташқари қолган барча омиллар маълум даражада яқин ҳисобланади.Натижавий кўрсаткичга омиллар таъсирини аниқлашда асосан жуфт корреляция қўлланилади. Жуфт корреляцияни аниқлаш бизга бир-бирини такрорлайдиган омилларни аниқлаш имконини беради ҳамда натижавий кўрсаткичга таъсир этиш даражаси кучсиз бўлган омилларни аниқлаш учун фойдаланилади. Ушбу усул билан жуфт корреляцияни аниқлаш орқали регрессия тенгламасига киритиладиган омилларни аниқлаб оламиз ва уларни регрессия тенгламасига киритамиз.

Бунинг учун қуйидаги жуфт коэффисиент корреляция формуласидан[104] фойдаланилди:

$$r = \frac{\overline{YX} - \overline{Y} * \overline{X}}{\sigma_Y * \sigma_X}$$

Бунда $\bar{y}$, $\overline{X}$,–натижавий ва омилларни ифодаловчи кўрсаткичларнинг ўртача миқдорлари;

$\overline{YX}$ – натижа билан омилларни ифодаловчи кўрсаткичларнинг кўрайтмаси;

σ_y, σ_x -натижавий ва омилларнинг ўртача квадратик четланиши.

[104]Statistika: uchebnik. / pod.red. S.A.Orexova. – M.: Eksmo, 2010. – s. 172.

Коэффистент коррелясиянинг миқдори (-1)дан (+1)гача оралиқдаги боғлиқлик даражасини аниқлаш имконини беради. Коэффистентнинг миқдори қуйидагича бўлиши мумкин:

1. Коэффистент коррелясияси (-1) ва (+1)га қанча яқин бўлса натижа билан омиллар ўртасидаги боғлиқлик шунча зич бўлади.

2. Агар p = 0 бўлса булар ўртасидаги боғлиқлик йўқ, деган хулоса учун асос бўлади.

3. Агар 0 < p < 1 бўлса ушбу кўрсаткичлар ўртасидаги боғлиқлиқ бевосита тўғри бўлиб, бир хил йўналишга эга бўлади.

4. -1< p < 0 бўлса улар ўртасидаги боғлиқлик тескари эканлигини кўрамиз.

5. p = 1 (-1) бўлса улар ўртасидаги боғлиқлик функсионал, деган хулосага келиш учун асос бўлади.

Ушбу формуладан фойдаланган ҳолда ГРЕТЛ дастури ёрдамида ўзаро такрорланувчи омилларни аниқлаш учун қуйидагича жуфт коррелясия коэффисентлари матрисаси тузилди. Ҳисоблашлар натижалари қуйидаги кўрсаткичларни берди (2-жадвал).

2-жадвал

“Регистон” ансамблига тушум ва унинг ўзгаришига таъсир этувчи омилларнинг ўзаро бир-бири биланжуфт коррелясион боғлиқлиги

Й	X1	X2	X3	X4	X5	X6
1,0000	0,6315	0,6789	0,5517	0,9678	0,6828	-0,2426
	1,0000	0,4851	0,4055	0,6477	0,1667	-0,7447
		1,0000	0,9856	0,7537	0,5583	0,0165
			1,0000	0,6318	0,5117	0,0579
				1,0000	0,5710	-0,1492
					1,0000	0,0060
						1,0000

Жадвал маълумотларидан кўриш мумкики, натижага танлаб олинган омиллардан X1 омил 63 фоиз, X2 омил 48 фоиз, X3 омил 93 фоиз, X4 омил 63 фоиз, X5 омил 57 фоиз боғлиқ ҳамда X6 омил эса натижа билан боғлиқликга эга эмас.Боғланишга эга бўлмаган X6 омилни моделдан чиқариб юборган ҳолда қолган бешта омил асосида кичик квадратлар усулидан фойдаланиб қуйидаги натижалар олинди (3-жадвал).

3-жадвал

Кичик квадратлар усули орқали натижа ҳамда омиллар ўртасидаги боғлиқлик даражаларининг натижавий кўрсаткичлари

№	Кўрсаткичлар	Коеффисент	Статистик хатолик	Статистика	p-кўрсаткич	Боғлиқлик даражаси
1	сонст	−8,56613e+09	6,05091e+09	−1,416	0,2160	
2	X1	1,64901e+08	1,46222e+08	1,128	0,3106	

3	X2	72978,7	9334,72	7,818	0,0005	***
4	X3	−76555,9	10079,0	−7,596	0,0006	***
5	X4	2,03138e+07	6,48649e+06	3,132	0,0259	**
6	X5	−8,56613e+09	6,05091e+09	−1,416	0,2160	

*- натижа ҳамда омилўртасида боғлиқлик бор;
**- натижа ҳамда омил ўртасида боғлиқлик ўртача;
***- натижа ҳамда омил ўртасида боғлиқлик юқори.

Тадқиқот натижаларидан кўриш мумкинки, натижага таъсир қилувчи X1 ҳамда X5 омиллар биргаликдаги тестдан муваффақиясиз ўтди. X2, X3 ҳамда X4 омиллар эса биргаликдаги тестдан муваффақиятли ўтди. Аммо X2 омил билан X3 ва X4 омиллар боғлиқлик даражасини юқорилиги инобатга олиниб мултиколлениарликни олдини олиш мақсадида X2 омил ҳам моделдан чиқариб юборилди ҳамда қолган икки омил X3 ва X4 омил бўйича кичик квадратлар усулидан фойдаланган ҳолда қайта тестдан ўтказилди (4-жадвал).

4-жадвал

Кичик квадратлар усули орқали натижа ҳамда омиллар ўртасидаги боғлиқлик даражаларининг натижавий кўрсаткичлари

№	**Кўрсаткичлар**	**Коэффисент**	**Статистик хатолик**	**т-статистика**	**р-кўрсаткич**	**Боғлиқлик даражаси**
1	сонст	−9,15305e+07	1,46132e+09	−0,06264	0,9518	
2	X3	−2167,99	2552,24	−0,8494	0,4237	
3	X4	87461,1	9920,65	8,816	<0,0001	***

*- натижа ҳамда омил ўртасида боғлиқлик бор;
**- натижа ҳамда омил ўртасида боғлиқлик ўртача;
***- натижа ҳамда омил ўртасида боғлиқлик юқори.

Тадқиқот натижаларидан кўриш мумкинки X3 ҳамда X4 омил асосида олиб борилган тестдан X3 омилнинг р қиймати 0,1дан 646 ата бўлганлиги сабабли тестдан муваффақиясиз ўтди.Тадқиқот давом эттирилди ҳамда қолган омиллар жуфтликлари асосида бир неча марта тестлар ўтказилди ҳамда X4 ва X5 омиллар жуфтлиги асосида кичик квадратлар усули орқали амалга оширилган тестдан ушбу икки омил муваффақиятли ўтганлиги аниқланди (5-жадвал).

5-жадвал

Кичик квадратлар усули орқали натижа ҳамда омиллар ўртасидаги боғлиқлик даражаларининг натижавий кўрсаткичлари

№	Кўрсаткичлар	Коэффисент	Статистик хатолик	Тстатистика	р-кўрсаткич	Боғлиқлик даражаси
1	сонст	−2901020000	1,23603e+09	−2,347	0,0513	*
2	X4	72775,4	7640,96	9,524	<0,0001	***
3	X5	15131500	7,05166e+06	2,146	0,0690	*

*- натижа ҳамда омил ўртасида боғлиқлик бор;

**- натижа ҳамда омил ўртасида боғлиқлик ўртача;

***- натижа ҳамда омил ўртасида боғлиқлик юқори.

Ушбу икки омилнинг биргаликдаги кичик квадратлар усули тестининг умумий натижаларига кўра асосий кўрсаткичлардан бири детерминация коэффициенти 0,950834га тенглиги аниқланди.Детерминация коэффициенти – регрессия моделининг аниқлик даражасини билдиради яъни, мустақил ўзгарувчилар боғлиқ ўзгарувчидаги умумий ўзгаришнинг неча фоизини тушунтириб бераётганлигини кўрсатади. Шу билан бирга, ушбу икки омил ҳамда натижа бўйича кичик квадратлар усули бўйича амалга оширилган статистик тестнинг умумий натижаларига кўра умумий *n* қиймат 0,000011 га тенглиги аниқланди.Тадқиқотнинг кейинги босқичи сифатида олинган натижаларни нормал тақсимот тестидан ўтказилди ҳамда қуйидаги натижалар олинди (2-диаграмма).

Тадқиқот натижаларидан кўриш мумкинки Хи-квадрат кўрсаткич 0,586 ни ташкил қилиб (–3:3) оралигига тушуши ҳамда танлаб олинган омилларнинг барчаси биргаликда нормал тақсимот тестларидан муваффақиятли ўтганлиги аниқланди.Олиб борилган ўрганишлар ҳамда тадқиқотлар натижасида “Регистон” ансамблининг тушуми ҳамда унга таъсир этувчи X4 ва X5 омиллар ўртасида қуйидаги регрессия тенгламаси ишлаб чиқилди.

Ўрганилган ўн йил ҳамда ушбу регрессия тенгламаси асосида “Регистон” ансамбли тушумининг 2027-йилгача бўлган прогноз кўрсаткичларини ишлаб чиқиш имкониятия яратилади. Шу билан бирга ишлаб чиқилган моделга қўйилиши лозим бўлган, тестлардан муваффақиятли ўтган $X_4 - xorijiyturistlarsoni$ ҳамда $X_5 - damolish\ maskanlarisoni$ нинг ўртача ўзгариш даражаси X4 омил 28 фоиз X5 омил 29 фоизга тенг эканлиги аниқланди.Агар данатижага таъсир қилувчи омиллар кейинг уч йилда ҳам шу ўртача даражани сақлаб қолса, уларнинг динамикаси қуйидагича ўзгариши аниқланди (6-жадвал).



2-диаграмма. Нормал тақсимот тести натижалари

$$y = 72775,4 * x_4 + 15131500 * x_5 - 2901020000$$

6-жадвал

Моделга киритилган омилларнинг ўртача ўзгариш даражаси сақлаб қолингандаги натижалари

Йиллар	X4	X5
2025	377 869	393
2026	483 672	508
2027	619 100	655

Агар моделга киритилган ҳамда барча статистик тестлардан муваффақиятли ўтган ушбу икки омил шу тартибда ўсиб борса “Регистон” ансамблининг тушуми 2025-2027-йилларда қуйидагича бўлади (7-жадвал).

7-жадвал

“Регистон” ансамбли тушум ҳажмининг 2027-йилгача бўлган прогноз кўрсаткичлари

Кўрсаткичлар	2025	2026	2027
“Регистон” ансамбли тушум ҳажми (сўмда)	30 552 021 742,52	39 978 408 317,18	52 061 448 249,89

Агарда $X_4 - xorijiy\ turistlar\ soni$ ҳамда $X_5 - dam\ olish\ maskanlari\ soni$нинг ўртача ўзгариш даражаси X4 омил 28 фоиз X5 омил 29 фоизга ўсиб борса “Регистон” ансамблининг 2027-йилга бориб тушуми 52 061 448 249,89 сўмга етиши прогноз қилинди (2.4.4-диаграмма).



3-диаграмма. «Регистон” ансамбли тушумининг 2027-йилгача бўлган прогноз кўрсаткичлари

Тадқиқот натижасида аниқланган прогноз кўрсаткичлари қуйидаги имкониятларни юзага келтиради:

Биринчидан, ансамблининг кейинги стратегик режаларини ишлаб чиқишда муҳим асос бўлиб хизмат қилади.

Иккинчидан, ансамблининг молиявий натижаларини бир қисмини прогноз кўрсаткичларини ишлаб чиқиш имконияти яратилади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1.Ўзбекистон Республикасининг Президенти Шавкат Мирзиёевнинг “Ўзбекистон Республикасида маданият ва санъат соҳасини инновацион ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Қарори. Тошкент ш.,2018 йил 26 август).

2.Брежнева М. Л., Культура и взаимодействие народов в музейных, научных и образовательных процессах – важнейшие факторы стабильного развития стран Евразии: сб. науч. тр.: в 2 ч. Омск: Издат. дом «Наука»,2021. – Ч. 2. –186 с.

3.Здасюк Н.М., Учебная программа учреждения высшего образования учубной диссиплине мезейного туризма, 2015, 8 с.

4.Зиба Я., Музейный туризм: определения, понятия и проблемы его развития, 118 с. - Экономические науки -International Journal of Humanities and Natural Sciences, vol. 10-4 (85), 2023.

5. Мухамедова М.С., Музейшунослик. Ўқув қўлланма. Тошкент, 2013.-174 б.

6. Мягтиной Н. В. ; Музееведение:Учеб. пособие Владим. гос.ун-т. – Владимир : Изд-во ВлГУ, 2010. – 114 с.

7. Соколова М. В., История туризма.Учебное пособие.Издательство «Мастерство», Саратов, 2002.-349 с.

8. Романчук А. Б.,Музейный туризм, Санкт-Петербург, Исторический Университет, 2010, 43 с

9. Урунбаева Ю.П. Аҳолининг маънавий-маърифий қадриятлари дунёсини бойитиш, ёш авлодни Ватанга муҳаббат ва садоқат руҳида тарбиялашда музейларнинг аҳамияти. «Iqtisodiyot va turizm» Халқаро илмий ва инновацион журнал. №2(16) 2024. 74-84 б.

10.Урунбаева Ю.П. Янги Ўзбекистонда музей туризмини ривожлантиришнинг назарий асослар. “BIZNES - ЭКСПЕРТ” 2024 69 -74 б.
11. Урунбаева Ю.П. МУЗЕЙ ТУРИЗМИ ВА АҲОЛИ ТУРМУШ ДАРАЖАСИ. “BIZNES - ЭКСПЕРТ” 2024. 13 -20 б.

O‘zbekistonda muzey turizmi xizmatlar bozorining o‘rni

URUNBAYEVA YULDUZ PIRNAZAROVNA
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti i.f.f.dok., dotsent

Annotatsiya:maqolada O‘zbekistonda muzey turizmining bozorini tashkil qilish va rivojlantirish masalalari yozilgan. Muzey turizmi bozoriga xaridorlarni jalb qilish tajribalari, elementlari keltirilgan, muzey turizmi bozorining mahsulotlarini ko‘paytirish bo‘yicha tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar:tannarx, raqobat, segment, demografiya, uyasi bo‘shaganlar, tasnif, marketing, monetizatsiya, respondent.

Jahonning hozirgi turizmi taraqqiyotida yana bir tendensiya davlatlar tomonidan tobora jiddiy e’tiborga olinmoqdaki, bu davlatlarda ichki turizmni va ichki turizmning turlarini rivojlantirish hisoblanadi. BTTning hisobotlari va tavsiyalari bo‘yicha pandemiyadagi cheklovlar olingandan keyin uning zararli oqibatlarini tugatish uchun davlatlar ichki turizmni rag‘batlantirish yo‘liga o‘tishlari kerak. Chunki, pandemiyadan oldin jahonning ichki turizmida 9 mlrd. safar uyushtirilgan bo‘lib, bu ko‘rsatkich xalqaro turizmdan (1,4mlrd.) 6 karra ko‘p. Bu ma’lumotlar ichki turizm rivojlangan davlatlarning iqtisodiyotiga juda katta mablag‘lar keltirayotganligidan dalolat beradi.

Olimlarning bashoratlari bo‘yicha 2033 yilga borib muzey turizmining butunjahon bozoridagi daromadlari har yili 11% ga ko‘tarila borib 75 mlrd.dollarga yetadi. Bunday bashoratlarga asoslanib dunyoda eng katta muzeylarga ega bo‘lgan Yevropa davlatlari endigina tashkil topayotgan muzey turizmni shiddat bilan rivojlantirmoqdalar .

Turizm xizmatlari bozorining mohiyati undagi vazifalarning bajarilishida ifodalanishi deb tushuntirilgan. Adabiyotlar bo‘yicha turizm xizmatlari bozorining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

1.turistik mahsulotning tannarxi va iste’molchi narxlarini belgilash.

2.turistik mahsulotni iste’molchiga yetkazib berish jarayonini tashkil qilish.

3.mehnatga bo‘lgan moddiy manfaatlarni iqtisodiy jihatlardan asoslab berish.

Bu xulosalar bizningcha turizm bozorining mazmuni va mohiyati to‘liq tushuntiraolmaydi. Birinchidan, turizm xizmatlari bozori deb nomlanishi turizm sohasida uning bozorlarini ko‘paytirib yuboradi. Masalan, turizmning reklama bozori, turizmning marshrutlari bozori, turizmning ko‘rgazmalari bozori va hakozolar… Turizm bozorining mohiyatini aniqroq tushuntirib beruvchi xulosa ham bor . Bu xulosada turizm bozori turizm mahsulotlarini ishlab chiquvchilar ham bozor tarkibiga kiritilgan holda nomlanish turizm xizmatlar bozori deyilgan.

Tadqiqotni bajarishda analitik va statistik tahlillar, kuzatuv, ijtimoiy so‘rov usullaridan, ilmiy ekspedisiya natijalaridan foydalanildi.

Hamma bozorlar ham kelib chiqishi va tayinlanishi jihatidan har xil hisoblanadi. Xalqaro turizm bozori ham ushbu xususiyatlardan xoli emas. Xaridorlar har xil ta’ab qiziquvchanlikga egaligidan ularning talablari ham biri-biriga o‘xshamaydi. Xaridorlardagi biri-biridan farq qilishi qanchalik ko‘p bo‘lsa, ularning barchasiga xush keladigan tovar va xizmatni ishlab chiqarish shunchalik qiyin bo‘ladi. Bunda barcha xaridorlarga mo‘ljallangan reklama ham foydasiz bo‘lib chiqadi.

Turizm bozorida turistik mahsulot ishlab chiqaruvchilar va bu turistik mahsulotni sotib oluvchi turistlar ekanligini e’tiborga olsak, bu bozorni oddiyroq qilib turizm bozori deb nomlash qulayroq bo‘ladi. Shuning uchun ham bizningcha, muzey turizmi bozorini 2 ga – O‘zbekistonning xalqaro muzey turizmi bozori va O‘zbekistonning ichki muzey turizmi bozori deb nomlash to‘g‘riroqdek bo‘layapti. Ushbu xulosalar bo‘yicha O‘zbekistonda muzey turizmi bozorining tarkibini tushuntirishga to‘xtaldik (1-rasm).



1-rasm. O‘zbekistonning muzey turizmi bozorining tarkibiy qismlari

Bozordagi raqobat tufayli ishlab chiqaruvchilar bozordagi xaridorlarning mayda talablarini ham e’tiborga olishga harakat qilishadi. Lekin, har bir xaridorga alohida tovar yoki xizmatlar ko‘rsatish ishlab chiqaruvchiga foyda bermaydi. Shu sababli ishlab chiqaruvchi va sotuvchi birgalashib, biri-biriga o‘xshash yoki yaqin bo‘lgan tovar va xizmatni xoxlovchilar va talab qiluvchilarning katta guruhlarini aniqlaydi. Bunday guruhlar segment deb ataladi, bunday guruhlarni aniqlash jarayoni segmentlash deyiladi.

Marketingning klassik qonuni bo‘yicha 20-30% xaridorlar tovar va xizmatlarning 70-80% ini sotib oladi. Shu sababli, bozorni segmentlash ancha qiyin jarayonlardan hisoblanadi. Bozorni to‘g‘ri segmentlash mahsulotlar ishlab chiqaruvchilarning oldindagi tovar va xizmatlarning strategik rejalarini ishlab chiqarishni osonlashtiradi.Keltirilgan umumiy bozor segmentini muzey turizmida quyidagi sharoitlarga javob berishi kerak:

1.Muzey turizmidagi turistlarning bir xilliligi-faqat bir xil, bir mavzudagi muzeylarni tanlashi.

2. Muzey turizmidagi turistlarining har xilliligi-muzeylarning barchasiga qiziqishi va tanlashi.

Muzey turizmi bozorini segmentlash sharoitlarini yaratishda muzey turizmi xizmatlarining reklamalari samaradorligi ham doimo kuzatilib boriladi. Reklamalardan doimiy foydalanuvchilarni yo‘qotmaslik uchun firmaning reklamalaridan ko‘plab foydalanuvchilarning miqdorlari ham doimo hisobga olinadi.

O‘zbekiston ichki muzey turizm bozorini segmentlashda quyidagilarni qabul qilish mumkin. Bozorni demografik belgilar bo‘yicha segmentlash. Bozor segmenti yosh, jinsi, oilaviy holati, oilaning tarkibi haqidagi ma’lumotlar bo‘yicha guruhlar hosil qilinadi. Bunda BTT turizm bozorini demografik belgilar bo‘yicha segmentlashda quyidagi 5 ta yosh segmentlarini ajratishdagi tavsiyasidan foydalanish mumkin:

1-Segment-0-14 yoshgacha-asosan bolalar. Ular ota-onalari bilan sayohatga chiqishadi. Xalqaro turizmda juda ko‘p davlatlar bu guruhdagilarga imtiyozli xizmatlarni ko‘rsatishadi. Chaqaloqlar bepul, 1-5; 6-11 va 12-14 yoshlilarga ham alohida ta’riflar belgilashadi.

2-Segment-15-24 yoshdagi yoshlar guruhini tashkil qiladi. Bular ota-onalarisiz ta’minlangan mablag‘lar hisobiga rejali sayohatlarga chiqishadi.

3-Segment- asosan 25-45 yoshdagilar hisoblanadi. Ular moliyaviy jihatlardan ancha faol bo‘lishadi. Lekin bu faollikda iqtisodni birinchi o‘ringa qo‘yishadi. Ularning aksariyat qismi bo‘sh vaqtni oilasi bilan birga o‘tkazishadi. Ularning sayohatlari ko‘pincha bolalarining talablari asosida tashkil qilinadi.

4-Segment – 45-64 yoshdagilar guruhi. Bular moliyaviy jihatlardan ancha faol. Oilaviy tashvishlaridan ancha xoli, bolalari voyaga yetishib ota-ona uyini tark etishgan. Bundaylarni G‘arbda “uyasi bo‘shaganlar” deyishadi.

5-Segment-65 yoshdan oshgan, ishlamaydigan pensionerlardan iborat.

BTTning turistlarning yoshi bo‘yicha keltirilgan tasnifidan muzey turizmining turistik tashkilotlari, turistik korxonalar, statistika tashkilotlari foydalanishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O‘zbekiston Respublikasida muzey va teatrlarning marketing faoliyati samaradorligini oshirish to‘g‘risida»gi qarorida- «tashrif buyuruvchilar va turizm sohasining sub’yektlari

orasida so‘rovnoma olib borish, marketing tadqiqotlari va jamoatchilik bilan o‘zaro aloqa qilishning strategiyasini avtomatlashtirishga mo‘ljallangan keng qamrovli axborot tizimi va ma’lumotlar bazasini (CRM) muzeylar faoliyatida joriy etish» vazifasi belgilangan . Shu qarorning ilovasida (Muzey va teatrlarning marketing faoliyati va xizmatlar monetizatsiyasini kompleks rivojlantirish chora-tadbirlari)- «Muzeylar faoliyati samaradorligini oshirish maqsadida jamoatchilikning muzey xizmatlariga bo‘lgan ehtiyojini har yillik sosiologik o‘rganishlar orqali tashkil etish» topshirig‘i mavjud.

O‘zbekistonda ichki muzey turizmi bozorlarini tashkil qilish va rivojlantirishdagi birinchi masala, bu yaratiladigan muzey turizmi mahsulotlarining iste’molchilarini bilish ekanligi turizmdagi tadbirkorga ma’lum masala. Shuning uchun ham, ichki muzey turizmining yosh (talabalar) o‘rtasida ularning muzeylarga qanchalik darajalarda qiziqishini o‘rganish bo‘yicha ijtimoiy so‘rov tadqiqotlari amalga oshirildi.

Tadqiqotlar natijasida aniqlandiki, Samarqand iqtisodiyot va servis institutining turizm ta’limida o‘qiyotgan 119 ta talabalaridan 66 talaba (55,46 %) O‘lkashunoslik muzeyiga, 31 talaba Mirzo Ulug‘bek muzeyi majmuasiga (26,05 %), 22 talaba (18,48 %) Afrosiyob muzeyiga borishgan. Ulug‘ yozuvchi S. Ayniy muzeyiga birorta talaba bormagan. O‘lkashunoslik muzeyiga qiziqishning sababi, bu muzeydagi eksponatlarning har xilliligida, turli xil mavzularda ekanligi bo‘lishi mumkin. Talabalarning Mirzo Ulug‘bek ijodiga va Samarqandning o‘tmish tarixiga qiziqishini ham ijobiy baholasa bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasi ekologiya, atrof muhit muhofazasi va iqlim o‘zgarishi vazirligidagi «Turizm qo‘mitasi»ning«Turizmni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot instituti» 2024-yil davomida mamlakatdagi oliy ta’lim muassasalari va talabalari o‘rtasida O‘zbekiston Respublikasidagi faoliyat olib borayotgan muzeylar, ularning faoliyati, ularning muzeylarga tashriflarini ijtimoiy so‘rovnoma asosida o‘rgandi .So‘rovnomada Respublikamizdagi universitetlar va institutlarning 407 talabalari va texnikumlar, kollejlarning 143 talabalari qatnashdi.

